

Analysis Of Paremiological Units Used In The Work Of Shum Bola

Melsova Madinabonu Sanjarovna

2nd Year Master's Student of Karshi State University

Abstract

This article analyzes the paremiological units used in Gafur Ghulam's work "Shum Bola" - proverbs, sayings, idioms and folk wise expressions. The paremies used in the work are an important tool in illuminating the national, cultural and aesthetic layers of the language. During the study, the semantic, grammatical and derivational properties of paremiological units are analyzed, and their functional load in the context of the literary text is determined. In particular, it is studied how national thinking, folk imagery, educational ideas and historical and cultural thinking are expressed in the literary language through proverbs. Also, the types of paremiological units, their figurative, aphoristic and structural features are considered based on a linguocultural approach. This article serves to determine the role and significance of folk oral means in the language of a literary work.

Keywords: paremia, culture, derivational analysis, reality, proverb, aphorism.

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'afur G'ulomning "Shum bola" asarida qo'llanilgan paremiologik birliklar – maqol, matal, ibora va xalqona hikmatli ifodalar tahlil qilinadi. Asarda ishlatilgan paremiyalar tilning milliy, madaniy va estetik qatlamlarini yoritishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida paremiologik birliklarning semantik, grammatik va derivatsion xususiyatlari tahlil qilinib, ularning badiiy matn kontekstidagi funksional yuklamasi aniqlanadi. Jumladan, maqollar orqali milliy tafakkur, xalqona tasvir, tarbiyaviy g'oyalar va tarixiy-madaniy tafakkur ifodasining badiiy tilda qanday ifoda topgani o'rganiladi. Shuningdek, paremiologik birliklarning turlari, ularning obrazlilik, aforizmlilik va struktura jihatidan xususiyatlari lingvomadaniy yondashuv asosida ko'rib chiqiladi. Mazkur maqola adabiy asar tilida xalq og'zaki ijodi vositalarining o'rne va ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: paremiya, madaniyat, derivatsion tahlil, realiya, matal, aforizm.

KIRISH. Paremiologik birliklar - bu maqol, matal, hikmatli so'zlar va boshqa xalq og'zaki ijodining qisqa shakldagi namunalardir. Paremiologik birliklar odatda obrazli bo'ladi. Ularning tarkibidagi obrazlar - jonivorlar, tabiat hodisalari, hayotiy buyumlar, kasb-hunar belgilar - barchasi madaniy jihatdan ahamiyatli belgilar bo'lib xizmat qiladi. Bu obrazlar har bir xalqning o'ziga xos simbolik qarashlarini aks ettiradi. Paremiologik birliklar uzoq vaqt davomida xalq xotirasida yashaydi. Ular orqali avloddan avlodga qadriyatlar uzatiladi. Ushbu birliklar lingvomadaniy funksiyalarni o'zida mujassamlashtiradi. Bulardan asosiylari:

- madaniy axborot tashuvchilik
- etno-madaniy tafakkur shakllantiruvchi omil
- konnotativ boylik va baholovchanlik
- milliy obrazlar vositasida ifodalilik
- tarixiy xotira va davr ruhi .

Tilning paremiologik fondini xalq durdonalaridan tuzilgan va uning madaniyatidan mustahkam o'rin olgan javohir sandig'i deyish mumkin. Maqol va matallar folkloshunoslikda janr matnlari sifatida o'rganilgan. Pragmatik nuqtayi nazaridan maqollar turli maqsadlarda, jumladan, maqollar yupatish, o'git berish, maslahat berish, saboq berish, ogohlantirish kabi maqsadlarda qo'llanishi mumkin. Biroq har qanday maqol va matal ham lingvokulturologik tadqiqotlarning predmeti bo'lavermaydi. Ushbu o'rinda faqat muayyan xalq yoki etnosning tarixi, madaniyati, turmushi, ma'naviyati va shu kabilar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan maqol va matallarni o'rganish lozim bo'ladi. S.I.Ojegov maqolga "ibratli mazmundagi qisqa xalq maqoli, xalq aforizmi" deb ta'rif beradi, ya'ni maqollar xalq orasida xalq og'zaki ijodida paydo bo'lib, ular

xalqning ko'p yillik hayotiy tajribasidan kelib chiqib, ular xalqning ko'p yillik hayotiy tajribasidan kelib chiqib, uning tarixi, turmush tarzi, madaniyati, taraqqiyotini ifodalaydi. O'zbek tilshunosligida maqollarni to'plash va ularni tilshunoslikning paremiologik fondida tahlil etish XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. O'zbek xalqi maqollarini to'plash va nashr qilishda o'zining ulkan xizmatini qo'shgan missioner N.G.Ostroumovdir¹. Hozirgi kunga kelib paremiologik birliklarning yangi nashri bilan B.Sarimsoqov, K.Imomov va X.Abdurahmonovlar salmoqli ravishda shug'ullanib kelmoqdalar². Jahon tilshunosligida ham paremiologiya yo'nalishi asosiy o'rganish obyektlaridan biri hisoblanadi. Maqol va matallar qisqa va ta'sirchan bo'lgani uchun, ular tilning ma'no qatlamlarini o'rganishda qulay material bo'lib xizmat qiladi. Lingvistik paremiyalar semantik o'zgarish, poetik obrazlilik va turli xil badiiy tuzilmalar bilan xarakterlanadi. Xalq asrlar davomida barpo etgan ma'naviy madaniyatning yaxlit bir butunligi, eng aniq namoyishi shubhasiz o'sha xalqning maqollari hisoblanadi. Har qanday millatning va xalqning tilini va madaniyatini o'rganishda, isloh etishda bu qimmatli xazina muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ularda xalqning o'tmishi, tarixi, kechinmalari o'z aksini topgan. Maqollarda - barqarorlik, tayyorlik, ko'chma ma'noga egalik va muallifga ega emaslik xususiyatlari mavjud. Paremlar so'zlardan tuzilib, ma'lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo'lgani uchun ham tilshunoslikning o'rganish obyektlaridan biridir, chunki ular so'zlardan hosil bo'lishiga ko'ra oddiy gaplarga o'xshasa ham, mazmuni, strukturasi, ifodasi va boshqa grammatik xususiyatlari jihatidan o'ziga xosliklarga ega. Paremlarning qachon paydo bo'lganligini aniqlash murakkab ish, lekin ularning ko'pchiligi juda qadim zamonlarda yaratilgan va ular o'zini ijod qilgan xalq bilan yashab kelmoqda. Paremiologiyani tilshunoslikning bir tarmog'i sifatida aniqlash frazeolog, paremiolog va vintolog Valeriy Mixaylovich Mokienkoga tegishlidir³. Olimning fikricha, paremlar tadqiqotining asosiy usullari - tavsifiy-analitik usul bo'lib, u tahlil qilinadigan hodisalarni bevosita kuzatishni o'z ichiga oladi, shu bilan birgalikda kontekstual tahlil, qiyosiy va lingvomadaniy tahlil usullari ham hozirda keng iste'molda hisoblanadi.

ASOSIY QISM. Badiiy asarlarda maqollardan foydalanish yozuvchining yuksak mahoratidan ham dalolat beradi, chunki vaziyatga va qahramon nutqiga mos bo'lgan paremiologik birlikdan foydalanish uchun xalq og'zaki ijodidan yetarlicha xabardor bo'lish lozim. G'afur G'ulom ham "Shum bola" qissasida maqollardan samarali va kerakli o'rinlarda foydalangan bo'lib, ular asarning badiiy jihatdan yetuk bo'lishida o'z hissasini qo'shgan.

OZIQLIK OT HORIMAS

SEMIZLIKNI QO'Y KO'TARAR

O'G'RI QARISA SO'FI, G'AR QARISA PARIXON BO'LADI

YOPIQ QOZON YOPIQLIGICHA QOLDI

TUYA KO'RDINGMI - YO'Q

BO'SH QOP TIK TURMAS

MASLAHATLI TO'N TOR KELMAS

YANGI YORNI KO'RGANDA, ESKIDAN KECHMOQ KERAK

O'ZINGNI EHTIYOT TUT, QO'SHNINGNI O'G'RI TUTMA

YETIM QO'ZI ASRASANG OG'ZI BURNING MOY ETAR,

YETIM O'G'OLON ASRASANG OG'ZI BURNING QON ETAR.

YOSHLAR XIZMATDA, KATTALAR ROHATDA

RIZQAST - FIZQAST

ASHULAGA - OSH-NON BERADI

OSMON UZOQ, YER QATTIQ

SHERIKLIK OSHNI IT ICHMAS

OYNI ETAK BILAN YOPIB BO'LMAYDI

EGASI YO'Q MOL AFANDINI

¹ Ostroumov N.G. "Materialy dlya izucheniya uzbekskogo yazyka". — Tashkent, 1890.

² Sarimsoqov B., Imomov K., Abdurahmonov X. O'zbek tili paremiologiyasiga oid tadqiqotlar // O'zbek tili va adabiyoti. — 2005. — №3.

³ Mokienko V.M. "Slavyanskaya paremiologiya: metodologiya i praktika". — SPb.: Filologiya, 2007.

OG'ZI QARO ALOMAT, ICHI QIZIL QIYOMAT - UNI TOPING DILBARIM

TOPISHMOQ. TANDIR

TOSHKENTNI NONINI YEGAN CHUMCHUQ MAKKATULLOHDAN QAYTIB KELADI

KISHI MUSOFIR BO'LMAGUNCHA MUSULMON BO'LMAYDI

HIKMATLI SO'ZLAR

1. Sa'diy aytibdur: *“Bir mamlakatda g'arib bo'lsang, hurmatsizlansang, safarni ixtiyor qil.*

2. Navoiy aytubdur: *“Ul kishidurkim, u dunyoni dunyoni tark qiladi, dunyo uni tark qilmasdan”⁴.*

Asardagi maqollarni struktur jihatdan tahlil etadigan bo'lsak, paremiologik birliklar asosiy lug 'aviy ma'noni ifodalash bilan bir qatordas ular turgan kontekstda qanday obrazli yoki ko 'chma ma'no kasb etganligini ham guvohi bo'lishimiz mumkin. Paremiyalarning derivatsion tahlil nafaqat ularning tuzilmasini, balki ular orqali o 'zbek xalqining tasavvur doirasi, obrazli tafakkuri va milliy madaniyatini ochib beruvchi kuchli yondashuvdir.

Paremiologik birliklarda derivatsion tahlil.

Affiksatsiya usulida yasalgan so'zlar:

- semiz+lik - semizlik (sifatdan ot tasalgan)
- oziq+lik - oziqlik (sifatdan ot yasalgan)
- yop+iq - yopiq (fe'ldan sifat yasalgan)
- pari+xon - parixon (otdan ot yasalgan)
- maslahat+li - maslahatli (otdan sifat yasalgan)
- yop+iq+ligicha - yopiqligicha (fe'ldan sifat, sifatdan ravish yasalgan)
- sherik+li - sherikli (otdan sifat yasalgan)
- po'st+ak - po'stak (otdan ot yasalgan)
- hurmat+siz+lan - hurmatsizlan (otdan sifat, sifatdan fe'l yasalgan)

Kompozitsion usulda yasalgan so'zlar:

- ixtiyor qil - qo'shma fe'l (ot+fe'ldan yasalgan)
- tark qiladi - qo'shma fe'l (ot+fe'ldan yasalgan)
- tark qilmasdan - qo'shma fe'l (ot+fe'ldan yasalgan)

XULOSA. Hozirgi kunda paremiologik birliklar o 'zida xalqning turmush tarzi va madaniyatini kumulyativ hodisa sifatida saqlab kelayotgani uchun ham lingvokulturologiyaning ham asosiy o'rganish obyekti sifatida xizmat qila oladi. Bu birliklar uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan bo'lib, ularning etimologik ildizlari ko'pincha xalq og'zaki ijodi, diniy urf-odatlar, qadimiy marosimlar va an'anaviy hayot tarzi bilan uzviy bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

G'ulom G'. Shum bola. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016.

Ostroumov N.G. “Materialy dlya izucheniya uzbekskogo yazyka”. — Tashkent, 1890.

Sarimsoqov B., Imomov K., Abdurahmonov X. O'zbek tili paremiologiyasiga oid tadqiqotlar // O'zbek tili va adabiyoti. — 2005. — №3.

Mokienko V.M. “Slavyanskaya paremiologiya: metodologiya i praktika”. — SPb.: Filologiya, 2007.

Mahkamova T. Maqollar va matallarning poetik strukturalari // Filologiya masalalari. — 2016. — №1. — B. 45–48.

⁴ G'ulom G'. Shum bola. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016.